

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 9 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i>	
RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i>	
SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i>	
SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умидা Нормурадовна</i>	
ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУФДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исматович</i>	
ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (XXCP)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i>	
SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i>	
SOVET DAVRIDA KITOБ TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonek Akrom o'g'li</i>	
MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Tolipova Baxtigul</i>	
MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i>	
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	
МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i>	
APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN	
INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'xon Saloxiddin o'g'li</i>	
MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI	
ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i>	
ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT	
INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganova</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ	
QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH	
MEXANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinoiboyevna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING	
TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК	
ФОЯЛAR ИН'ИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадкуловна</i>	
ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ	
ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloyev Otabek Muhamadovich</i>	
KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Токимбетова Гулбахор Абатбаевна</i>	
ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАВИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Aljon qizi</i>	
"BOBURNOMA"NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i>	
JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA	
INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i>	
SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING	
QIYOSIY TADQIQI: "ANOR" HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

*Abulova Zilola Azimovna*

- INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN  
IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI ..... 207-201

*Qurbanova Dilnoza Olimovna*

- TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK ..... 210-216

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

- ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI ..... 217-221

*Babajanova Aziza Rustamovna*

- ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI ..... 222-227

*Khursanova Laylo Bakhtiyarovna*

- REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH  
DICTIONARIES ..... 228-232

*Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi*

- O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI ..... 233-238

*Samadova Visola Baxtiyor qizi*

- INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 239-242

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Tўlaganova Gulchexra Zakhitovna, Goфurova Dilafruz Murod қизи*

- АЭЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ  
РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ  
ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 243-252

*Tosheva Maftuna Anvar qizi*

- INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN  
BOG'LIQ JINOYATLAR ..... 253-262

*Ikramov Sherzod Raximjanovich*

- VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI ..... 263-266

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Tohirova Mohigul Umir qizi*

- KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK  
O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIIA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI  
DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) ..... 267-274

*Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich*

- OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA  
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB  
BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ..... 275-281

*Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna*

- BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH  
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI ..... 282-292

*Ashurova Marhabo Sayfulloyevna*

- BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .... 293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Mamajonova Gulnoza Karimovna</i>	
IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i>	
GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEKNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i>	
QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i>	
УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i>	
GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'ribo耶evna</i>	
TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI .....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024

**Accepted:** 5 September 2024

**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **CONTRIBUTION OF WOMEN AND GIRLS OF SAMARKAND REGION TO SCIENCE, EDUCATION AND INNOVATION**

**Rustamova Madina Musokulovna**

Doctoral student Samarkand State University named after Sharof Rashidov

[madinamusoqulovna@gmail.com](mailto:madinamusoqulovna@gmail.com)

**Abstract.** In this scientific article, the participation of women of Samarkand region in the fields of society and science is studied, and the activities of women leaders, doctors of science, candidates of science, women scientists, entrepreneurs, inventors, talented and gifted women are comparatively analyzed. In today's prestigious magazines, world ratings, international databases, information is given about the women of the region who have shown their talent.

**Key words:** Gender equality, women, guarantee, pedagogy, science, scientific research, state and community management, respectable women, leaders and women scientists.

## **SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI**

**Rustamova Madina Musoqulovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Samarqand viloyati xotin-qizlarning jamiyat va ilm-fan sohalaridagi ishtiroki o'rganilib, rahbar ayollar, fan doktorlari, fan nomzodlari, olima ayollar, tadbirkor, ixtirochi, istedodli va iqdidorli xotin-qizlarning faoliyatlarini qiyosiy tahlil qilingan. Bugungi kundagi nufuzli jurnallarda, dunyo reytinglarida, xalqaro bazalarda o'z iqtidorini ko'rsatgan viloyat xotin-qizlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gender tenglik, xotin-qizlar, kafolat, pedagog, ilm-fan, ilmiy tadqiqot, davlat va jamiyat boshqaruvi, mo'tabar ayol, rahbar va olima ayollar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N07>

**Kirish.** YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda jami tadqiqotchilarning 33,3 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Shu bilan birga, ilm-fan sohasida xotin-qizlar ishtirokiga oid statistik ma'lumotlar yetarli emas. O'tgan davrda jahon hamjamiyati xotin-qizlarni ilm-fanga jalg etish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Har yili 11-fevralda ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro tadbirlar o'tkazilishi zamirida muayyan ramziy ma'no bor. Gap shundaki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Taraqqiyot maqsadlari yo'lida fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risidagi rezolyutsiyada "11-fevral – Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni", deb e'lon qilingan. 2015-yilda mazkur yangi xalqaro sananing belgilanishi Barqaror rivojlanish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan kun tartibini amalga oshirishdagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda barqaror rivojlanishga erishishda

ilm-fan va gender tengligi ulkan ahamiyatga egadir.

Gender teng huquqlilik kafolatlanib qo'yilgan mamlakatimizda xotin-qizlarning maorif, san'at, madaniyat, ilm-fan va ilmiy yo'nalishlar kabi sohalardagi ulushi ortib bormoqda. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarda 1733 ta doktorlik dissertatsiyasidan 320 tasini ayollar (18,5 %), 8459 ta fan nomzodligidan 3081 tasini (36,4 %) ayollar himoya qilishga erishgan bo'lsalar, 2005-2008-yillar oralig'ida 110 nafar ayol doktorlik dissertatsiyasini, 888 nafar ayol nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishga muvaffaq bo'ldilar. Bularidan 37,3 foizi tibbiyot, 11,8 foizi pedagogika, 10 foizi filologiya yo'nalishiga oid doktorlik, 35,5 foizi tibbiyot, 13,3 % - pedagogika, 11,4 foizi filologiya, 7 foizi iqtisodiyot, 4,2 foizi texnika yo'nalishiga oid nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar. 2010-yilda esa 109 ta fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lish uchun qilingan himoyalardan 26 tasi ayollar, 648 ta fan nomzodlik himoyasidan 260 tasi ayollar ekanligi ilm-fan yutuqlarini xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga joriy etishda xotin-qizlarning o'z o'rni borligidan dalolat beradi[1].

O'nlab opa-singillarimiz "*O'zbekiston Qahramoni*", "*O'zbekiston fan arbobi*", "*O'zbekiston xalq o'qituvchisi*", "*O'zbekiston xalq shoiri*", "*O'zbekiston xalq artisti*" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. 2022-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fan sohasida ayollarning 15 nafari O'zbekiston Qahramoni mehnat qilmoqda. Umuman, ilm-fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, san'at va madaniyat sohalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ulushi 72 foizni tashkil etmoqda [2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'zbekistonda 2016-yildan boshlab barcha sohalardagi kabi ilm-fanni yuksaltirish, ta'lif sohasida sifat va samaradorlikka erishish sohadagi islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishga e'tibor yanada kuchaytirildi. Davlatimiz rahbari 2020-yilda "*O'qituvchi va murabbiylar kuni*" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir"[3]. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lif tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lif, maktab va oliy ta'lif tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da fan, ta'lif va madaniyatni rivojlantirishga alohida o'rin ajratilganligi fan va ta'lifni rivojlantirish dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi. Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlari orasida ayollarning bu sohalarda mas'uliyati oshib bormoqda. Shu munosabat bilan, ta'lif tizimi, sog'liqni saqlash, transport sohasimi va boshqa bo'lishidan qat'iy nazar ayol o'z vazifasini ortig'i bilan bajarishga harakat qilmoqda.

Eng asosiysi, keyingi davrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, oliy o'quv yurti tahsilidan keyingi ta'lif tizimini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-tashkiliy choralar ko'rildi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi shu kabi hal qiluvchi islohotlar, yanada aniq qilib aytganda, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida erishilgan amaliy samaralar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda, xususan, xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga yanada keng jalb etishda ulkan omil bo'lmoqda.

Natijada bugungi kunda Fanlar akademiyasi tizimida ishlayotgan 4 ming 760 nafar xizmatchining 40 fozini, ya'ni 1 ming 905 nafarini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Yurtimizda ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul 2 ming 146 nafar tadqiqotchidan 695 nafari ham ayollardir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston xotin-qizlarining 7 nafari – akademik, 271 nafari – fan

doktori (DSc), 1 ming 411 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohibalari hisoblanadi[4]. 2024-yil bilan taqqoslaganda, hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko'rsatmoqda. Oliygochlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda[5].

O'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda ayniqsa faol izlanmoqdalar. Ta'lif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rinn tutadi. Ammo, tabiiy fanlar, matematika, injiniring, texnologiya, sanoat va qurilish sohalarida nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda ayollarning o'rni hamda mavqeい ancha quyida ekanidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Yurtimizda 220 dan ortiq oliy o'quv yurti bor, biroq rektor sifatida ishlab kelayotgan ayollar soni 8 nafar va bu ko'rsatgich 7 % ni tashkil etadi.

Samarqand viloyatida esa, bugungi kunda 15 ga yaqin oliy o'quv yurtlari va uning filiallari faoliyat yuritmoqda. Ushbu oliy o'quv yurtlarida ilmiy ish bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlar soni 3 mingdan ortiq hisoblanadi[6]. Qayd etish lozimki, respublika va viloyatda quyidagi o'z bilimi tajribasi va professionalligi bilan mehnat qilib kelayotgan rahbar rektorlarni ko'rshimiz mumkin:

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rektori filologiya fanlari nomzodi, professor Rixsiyeva Gulchehra; Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori filologiya fanlari nomzodi, dotsent Xodjayeva Dilnoza; Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Siddiqova Sadoqat; Urganch davlat pedagogika instituti rektori pedagogika fanlari doktori, dotsent Madraximova Feruza; Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti rektori tibbiyot fanlari doktori, professor Ataniyazova Oral; Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori professor Chidem Janbay; O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti rektori falsafa fanlari doktori, professor Negmatova Shahzoda.

Samarqand viloyatida ayol rektorlarni faoliyat yuritishi quvonarli albatta. 1990-yillarda esa professor Halima Alimova Toshkent tekstil va yengil sanoat instituti rektori lavozimida ishlagan va aynan shu institut O'zbekiston Respublikasi test markazi tomonidan o'tkazilgan attestatsiya va akkreditatsiyadan eng yuqori ball bilan birinchi o'rinni egallagan. Rahbar ayol o'z jamoasini oilasi sifatida qabul qiladi, xo'jalikdagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilib, har qanday muammoni hal qilishning eng oson, beozor yo'lini tanlaydi.

Ilmiy tadqiqot natijasi ko'rsatishicha, insonning intellekti, asosan, otadan emas, ona genidan o'tar ekan. Bundan aynan erkak kishi o'ziga aqli juft qidirishi kerakligi kelib chiqadi. Oisha Elsafti,- Kembrij universitetining qashshoq va rivojlanayotgan davlatlarda qo'llaniladigan simsiz hisoblash tarmoqlari texnologiyasi dasturchisi. Anushix Ansari 2006-yil kosmosdagi birinchi ayol-sayyoh va kelib chiqishi eronlik bo'lgan birinchi astronavt bo'ldi. Jeyn Gudoll - BMT dunyo elchisi, bosh primatolog, buyuk britaniyalik etolog va antropolog olima[7].

Bular qatorida o'zbek ayollarining ham ism-shariflari borligi dilni quvontiradi. Masalan, Suyima G'anieva O'zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olima. Mumtoz Sharq adabiyoti bo'yicha dunyoning nufuzli olimalaridan biri. Zulfiyaxonim - O'zbek xotin-qizlarining milliy timsoli, taniqli shoira. Bu ro'yxatni faxr bilan davom ettirar ekanmiz, bizning zamondoshimiz va vatandoshlarimizdan bo'lgan yana bir aytish joiz bo'lsa qaxramon ayol nomi dunyoga yoyiladi. Bu - Leyla Belyalovadir. Leyla Belyalova o'zbek akademigi va ekologi. 2018-yil O'zbekiston ekotizimlarini targ'ib qilish va himoya qilish borasidagi ilmiy ishi uchun BBC

tomonidan dunyoning eng nufuzli 100 nafar ayollari ro'yxatidan joy olgan[8]. Albatta bular qatoriga yana, Nona Avanesova, Oynisa Musurmanova, Shoira Musaeva, Dilfuza Maxmudova, Shaxlo Botirova, Gulnora Ernazarova, Dilnavoz Kamalova va boshqa olimalarni kiritishimiz mumkin.

**Muhokama va natijalar.** So'nggi yillarda Samarcandlik olimalarning fan va innovatsiyalar sohasida erishgan yutuqlari to'g'risida gapirganda, quyidagilarni e'tirof etish mumkin. Pardaeva O.M., Boymuradova I. (TDIU SF) - "ERASMUS+" dasturi AgroDev (Sifatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan oliy ta'limni rivojlantirish) loyihasi a'zosi; Samarcand davlat universiteti, Arxeologiya kafedrasi professori N.A. Avanesova Germaniya Arxeologiya instituti Evroosiyo bo'limi bilan hamraislikda "O'zbek-Evropa arxeologik ekspedisiyasini tashkil etish va Zarafshon voxasida razvedka ishlarini olib borish" loyihasi bo'yicha 2018-2019 yillarda Samarcand viloyati Qo'shrabod tumanida olib borilgan qo'shma arxeologik ekspedisiya rahbari; Bekmuradova Xurshida (SamVMI) - QX-A-QX-2018-127 raqamli "Samarcand viloyati sharoitida yangi navlarini yaratish uchun pomidorning virusli mozaika kasalliklari (Tomato mosaic tobamovirus) va shirin qalampirning oq pashsha (Aleyrodidae Hemoptera)ga chidamlı dastlabki materialini yaratish" mavzusidagi loyiha ishi (2018-2020-yillar) ishtirokchisi; Salaxtdinova Maysara (SamDU) OT-F2-27-"O'zgaruvchan valentlikga ega bo'lgan o'tkinchi metallar ioni bilan aktivlashtirgan fosfat va silikat shishalarga murakkab maydonlarning termoradiatsion ta'sirida fundamental yutilish chegarasini va kvant effektlarining o'zgarishini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyiha rahbari hisoblanadi[9].

Shuningdek, Aslanova Dilbar Xasanovna (SamISI) "Agroekoturistik majmua yaratish usullari" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha rahbari; Alimova Mashxura (SamISI) "Samarcand viloyatida turistik erkin iqtisodiy hududni yaratish strategiyasi" (2018-2020) mavzusidagi amaliy, "E-ziyorattourism in Samarkand elektron platformasini yaratish" (2021) mavzusidagi innovatsion loyiha rahbari; Amriddinova Rayxona (SamISI) "Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha rahbari; Qilichova Orzugul tomonidan 135,0 mln so'mlik "AUTO-ATTOR" startap loyihasi amalga oshirilgan[10].

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni (keyingi o'rinnlarda ko'krak nishoni deb ataladi) bilan jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar taqdirlanadilar.

Respublikada bugungi kunga qadar 855 nafar ayollar "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, ulardan 54 nafari Samarcand viloyati ayollaridir[11]. 2021-yilda viloyatdan davlat mukofoti bilan taqdirlangan tashabbuskor davlat va jamoat tashkilotlari rahbar-xodimlaridan 17 nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida tadbirkorlik rivoji uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib, sohada ayollarning ulushi ham yuksalib bordi. Bu davrda xotin-qizlar respublikadagi tadbirkorlarning 38,3 foizini

(erkaklar 61,7 foiz) tashkil etgan.

Viloyat Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Yil ayoli" milliy tanloving viloyat bosqichida ishtirok etgan 130 nafar xotin-qizlardan 13 nafarining hujjatlari tanlovnning respublika bosqichiga tavsiya etildi. Samarqand viloyatidan quyidagi xotin-qizlar viloyat bosqichi g'oliblari bo'ldilar: 1-o'rin Samarqand viloyati Samarqand shahridan: Samarqand davlat universiteti ekologiya kafedrasи dotsenti Belyalova Leylya Enverovna; 2-o'rin Samarqand viloyati Nurobod tumanidan: Nurobod tumani janubiy kon boshqarmasiga qarashli tikuvchilik korxonasida ish yurituvchi Qurbonova Dilbar Azamatovna; 2-o'ringa yana Samarqand viloyati Payariq tumanidan: 39-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi Parmonova Nargiza Baxodirovnalar 1, 2, 3 - darajali diplomlar bilan taqdirlandi[12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-sonli Farmoniga muvofiq Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan vakilalariga berilgan edi[13].

Samarqand viloyatida quyidagi xotin-qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini oldilar: 2000-yil R.Tojiyeva - Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani 6-son qishloq kutubxonasi mudiri; 2001-yil G.Asqarova - Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani "Hilol" gazetasining xodimi; 2002-yil M.Ulashova - Samarqand viloyati Madaniyat kollejining 1-kurs talabasi; 2003-yil Z.Ashurova - Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi 35-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi; 2004-yil N.Haydarova - Samarqand huquqshunoslik kollejida huquqshunoslik fani o'qituvchisi; 2005-yil G.Berdimuratova - Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy markazi Qarshi filialida ginekolog-vrach; 2006-yil Sh.Achilova - ta'lim yo'nalishi bo'yicha, 2007-yil N.Abdurahimova - Oqdaryo pedagogika kolleji axborot-resurs markazi rahbari; 2008-yil R.Amonova - madaniyat yo'nalishi bo'yicha, 2009-yil D.Salimova - Shveysariyaning Syurix shahri oliy politexnika maktabi 2-bosqich magistranti; 2010-yil M.Sanaqulova - O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Sport" telekanalida jurnalisti; 2011-yil U.Jo'raeva - Samarqand davlat universiteti mexanika-matematika fakulteti magistranti; 2012-yil M.Ahmadova - Samarqand davlat universiteti maxanika-matematika fakultetining 3-bosqich talabasi bo'lgan. 2013-yil K.Suyarova - Samarqand davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti 1-bosqich talabasi; 2014-yil D.Olimova - Samarqand shahridagi Siyob tibbiyot kollejining 1-bosqich o'quvchisi; 2015-yil R.Irgasheva - Samarqand pedagogika kollejining 2-bosqich o'quvchisi; 2016-yil D.Keldiyorova - Samarqand viloyati Pastdarg'om politexnika kasb-hunar kollejining 3-bosqich o'quvchisi; 2017-yil D.O'roqova - Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan Umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi; 2018-yil M.Samatboyeva - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshidagi akademik litseyning 3-bosqich o'quvchisi; R.Yaxshiliqova - Samarqand viloyati Qo'shrabot qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining 3-bosqich o'quvchisi; 2019-yil H.Rasulova - Samarqand shahridagi 51-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi; M.Qanoatova - Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 45-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi; 2020-yil K.Musulmonova - Samarqand davlat universitetining 2-bosqich magistranti; N.Usmanova - Samarqand davlat universitetining 1-bosqich talabasi; 2021-yil F.Xayrullayeva - "Respublika yosh ijodkorlar kengashi" nodavlat notijorat tashkiloti matbuot kotibi (Samarqand viloyati); M.Shomurodova - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2-bosqich talabasi (Samarqand viloyati); 2022-yil

X.Orziqulova - O'zbekiston davlat konservatoriyasining 3-bosqich talabasi (Samarqand viloyati); M.Xalilova - Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 59-ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabning 12-sinf o'quvchisi; 2023-yil F.Xudoyerova - Samarqand viloyati Samarqand shahridagi "Alisher Navoiy" mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi; B.Ergashova - O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri (Samarqand viloyati). 2024-yil V.Savadyan - Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 51-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim matabining 10-sinf o'quvchisi, badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi; N.Yunusova - Samarqand viloyati Toyloq tumani "Qo'shchinor" gazetasi muxbiri kabi xotin-qizlar shular jumlasidan hisoblanadi[14].

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida 2020-2021-yillarda ta'lim olgan 440 ming 959 nafar talabaning 45,9 fozi xotin-qizlardan iborat edi. Shu davrda davlat rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta'lim muassasalariga 4 foizli davlat grantlari ajratildi. Mazkur yangi tizim asosida 2020-yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qiz o'qishga qabul qilindi[14]. 2021-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning 2 ming nafari uchun maxsus stipendiyalar ajratish yo'lga qo'yildi.

Viloyatda 2022-yilda oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi 3103 nafar xotin-qizlarga oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tavsiyanomalar berildi. Umumiylis hisobda, 2021-yilda viloyatda oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida 63 ming 338 nafar talaba tahsil olgan. Bu o'tgan besh yillikka nisbatan 2,5 barobarga ko'pdir. 2016-yilda 26 ming 692 nafar talaba tahsil olgan edi[15].

Samarqand viloyati oliy o'quv yurtlarida bugungi kunda 498 nafar iqtidorli talaba qizlar tahsil oladi. Shulardan 4 nafari Prezident stipendanti, 21 nafari nomdor davlat stipendantlari, 4 nafari viloyat hokimi stipendantlaridir. 41 nafar iqtidorli magistrant xotin-qizlar, 111 nafar doktorant xotin-qizlarimiz o'qish va ilmiy ish qilish bilan shug'ullanishmoqda. 2022-yilda oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi 3103 nafar xotin-qizlarga oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tavsiyanomalar berildi[16].

2020-2021-yillarda ilm-fanning turli sohalari bo'yicha Samarqand davlat universitetida PhD bo'yicha jami 30 dan ortiq olimalar himoya qilganligi diqqatga loyiqdirdi. Shular jumlasiga, Asanova Hafiza, Baxriyeva Dilfuza, Davronova Maxfuza, Daminova Rahima, Djurayeva Sojida, Yuldasheva Dilnoza, Musinova Ruxshona, Raxmatova Fotima, Tagiyeva Gulsum, Tursunqulova Shaxnoza, Ulug'muradova Nodira, Umurova Go'zal, Xamraqulova Shoxista, Xamrayeva Feruza, Akbaeva Zebiniso, Axmedova Dilorom, Buzrukova Maxina, Butunbeva To'maris, Jiyanqulova Rahima, Isakova Nodira Azzamova, Keldiyorova Gulmira, Qodirova Barno, Qosimova Ozoda, Mansurova Nargiza, Maxmudova Aziza Nugmanovna, Narmayeva Gavhar va boshqalar kiradi[17]. Himoya qilgan ixtisosliklari: 10.00.01-O'zbek tili, 10.00.02-O'zbek adabiyoti, 09.00.03-Falsafa tarixi, 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya bo'yicha, 07.00.01-O'zbekiston tarixi, 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi, 22.00.02-Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi, 09.00.02-Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi, 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi, 13.00.04-Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi, 03.00.06-Zoologiya

kabilardir.

Qiyosiy solishtirish uchun, masalan 2020-2021-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutida PhD bo'yicha jami 10 dan ortiq olimalar himoya qilgan. 2020-2021-yillarda Samarqand davlat tibbiyot universitetida PhD bo'yicha jami 30 nafar olimalar himoya qilgan. Andijon viloyati misolida gapiradigan bo'lsak, 2018-2020- yillar davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan olimalar tomonidan 6 nafar fan doktori (DSc), 14 nafar falsafa doktori (PhD) bo'yicha dissertatsiyalar himoyasi amalga oshirildi[18].

**Xulosa.** Samarqand viloyati bo'yicha umumiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, rahbarlik lavozimlarida jami 8925 nafar rahbar ayollar faoliyat olib bormoqda. Shundan, 32 nafari oliy ta'lim, 19 nafari o'rta maxsus ta'lim, 1005 nafari xalq ta'limi, 724 nafari maktabgacha ta'lim, 167 nafari sog'liqni saqlash, 108 nafari ishlab chiqarish, 232 nafari qishloq xo'jaligi, 8 nafari qurilish sohasi, 32 nafari huquqni muhofaza qiluvchi idoralarda, 116 nafari xizmat ko'rsatish sohasida, 21 nafari madaniyat va san'at yo'nalishida, 28 nafari hokimliklar tizimida, 5030 nafari xususiy sektorda, 1296 nafari mahalla raisi va uning o'rnbosarlari lavozimlarida faoliyat olib bormoqda[19]. Qiyoslab aytish mumkin, Surxondaryo viloyatida ham xalq ta'limi tizimida ham xotin-qizlar ulushi yildan yilga ortib bordi. 2019-yilga kelib viloyatda xalq ta'limi tizimidagi ayol o'qituvchilarning salmog'i 54,5 % ni tashkil etdi. 2020-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 63 % ga yetdi[20].

Hozirda Samarqand viloyatida jami 1272 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari mavjud bo'lib, o'qituvchilar soni 69426 nafar va o'quvchilar soni 774861 nafarni tashkil etadi. 2019-yildan e'tiboran alohida o'quvchi-qizlar bilan ishslash yo'nalishini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan platforma vazifasini o'tovchi - o'quvchi-qizlarning zamonaviy bilim-ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, kasb-mahoratini oshirish maqsadida Respublika, hududlar va barcha tuman (shahar)larda "Qizlarjon" o'quvchi-qizlar sammitlari tashkil etildi. Xalq ta'limi vazirligi va Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida o'quvchi-qizlarda zamonamiz qahramonlari bo'lgan rahbar ayollarning siyosiy portretlarini shakllantirish maqsadida tadbirkorlik va ishbilarmonlik sohasida yetakchilik qilayotgan rahbar ayollar, tuman (shahar) hokimlari o'rnbosarlari, Xotin-qizlar qo'mitalari raislari lavozimida "Ustoz-shogird" an'anasa bir kunlik amaliyot dasturini o'tkazish bo'yicha "Dublyor" loyihasi Samarqand viloyatida tajribadan o'tkazildi[21].

### Адабиётлар/Литература/References:

- Shamsieva M. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni (1991-2010 yy). Tarix fanlari PhD Avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 19.
- Mahkamova M. Gender tenglik-imkoniyatlar tengligi// Xalq so'zi, 2022-yil 7-aprel. № 72 (8134). – B. 3.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 30.09.2020. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
- Saidov A. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va buniyodkorlik tushunchalari talqinida// <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-fan-soasida>
- Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi// O'zbekiston Respublikasi

- Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. 07.03.2024-yil.
6. 2021-yil 17-dekabr kuni Samarqand viloyat hokimi E.Turdimovning Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi elliginchi sessiyasida viloyatda 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar yakuniga oid ma'ruzasi. <https://review.uz>
  7. xabar.uz ma'lumotlari <http://www.xabar.uz-22-12-2018>
  8. Leyla Belyalova. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
  9. Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlash, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish yuzasidan 2019-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti hamda "Olima" uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi ma'lumotlari.
  10. "Olima" uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi ma'lumoti.
  11. Rustamova M. O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanishida Samarqand viloyati xotin-qizlarining o'rni// "Fan, ta'lim va amaliyot integrasiyasi" ilmiy-metodik jurnali. <http://biling.academiascience.org> FTAI Jild: 04 Nashr: 2 | feb - 2023 V.5.
  12. Samarqand viloyati Xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxivi, 2018-yil.
  13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.06.1999-yildagi PF-2326-sonli "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-213812>
  14. Samarqand viloyati hokimligi joriy arxivi.
  15. Saidov A. Ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyati: ma'naviyat, tinchlik va bunyodkorlik tushunchalari talqinida// <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-fan-soasida>
  16. 2021-yil 17-dekabr kuni Samarqand viloyat hokimi E.Turdimovning Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi elliginchi sessiyasida viloyatda 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar yakuniga oid ma'ruzasi. <https://review.uz>
  17. Samarqand viloyati hokimligi joriy arxivi F:1, 2022-yil.
  18. "Olima" uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi ma'lumoti.
  19. Hasanova N. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi ishtiroki (1991-2021-yillar Andijon viloyati misolida)". Tarix fanlari bo'yicha PhD avtoreferati. – Andijon, 2024. – B. 20.
  20. Samarqand viloyati hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi rahbarining ma'lumoti. 2021 yil 27 dekabr. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqand-viloyati-hokimligi>
  21. Radjabova S. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarining tutgan o'rni (1991-2020 yy). Tarix fanlari PhD avtoreferati. – Termiz, 2022. – B. 21.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 9 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).